

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>J.Qodirov</b>	
Shaxsga yo'naltirilgan jismoniy tarbiya ta'limi jarayonida pedagogik monitoringni amalga oshirish omillari.....	99
<b>M.Hamidjonov, N.Shodilbekov</b>	
Futbolchilarning ruhiy va jismoniy jihatdan tayyorlashning asosiy usul va vositalari.....	103
<b>B.Qurbanova</b>	
Talabalarni hamkorlik pedagogikasi asosida ijtimoiy hayotga tayyorlashda moslashuvchanlik imkoniyatlarini oshirishni modellashтирish .....	107
<b>D.Xakimova</b>	
Innovatsion salohiyat pedagog faoliyatining ajralmas qismi .....	111
<b>B.Umarov</b>	
Raqamli texnologiyalar asosida pedagoglarning professional kompetentligini rivojlantirishning Ilmiy-nazariy asoslari.....	114
<b>Sh.Ro'zaliyev</b>	
"Geymifikatsiya" va "Didaktik jarayonlar"ning metodik tavsifi .....	118
<b>F.Yuldashev</b>	
Ko'ngilli yong'in-qutqaruvchilarni o'qitishda interaktiv trenajyorlardan foydalanishning ahamiyati .....	123
<b>A.Rajabov</b>	
Mirbobo Naqshbandiy qalb zikri va uning turlari to'g'risida.....	129
<b>Z.Xamraqulov</b>	
Jinoyat huquqining o'qitilishida huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilish asoslari.....	133
<b>S.O.Omonova</b>	
O'zbekistonda sportni rivojlantirish bo'yicha davlat siyosati va bunda xotin-qizlar ishtiropi .....	138
<b>A.T.Tuychiyev</b>	
Raqamli texnologiyalar davrida tanqidiy fikrlashning ahamiyati .....	142
<b>N.E.G'olibjon</b>	
Oliy ta'lif talabalarining jismoniy sifatlarini aylanma mashqlar asosida rivojlantirish usullari .....	149
<b>J.B.Hamraqulov</b>	
Talabalarda ekologik axloqiy kompetentlikni shakllantirish imkoniyatlari .....	154

## IQTISODIYOT

<b>M.Adxamov</b>	
Kichik mamlakatlarning milliy innovatsiya tizimlari raqobatchilik masalasi.....	158
<b>A.A.Oripov</b>	
Risklarni boshqarish tizimi asosida xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyati samaradorligini baholash .....	161

## FALSAFA

<b>M.Qaxxarova, M.Raximshikova</b>	
Yoshlarning ongu tafakkurini shakllantirish va tarbiyalash mummosi .....	169
<b>A.Sufiyev</b>	
Tadbirkorlik madaniyatini oshirishning aksiologik va pragmatik omillari .....	175
<b>B.G'aniyev</b>	
Markaziy Osiyo mutafakkirlarining fuqarolik jamiyatni haqida ilk ijtimoiy-falsafiy qarashlari .....	181
<b>S.Yuldashev</b>	
Jamiyat transformatsiyalashuvining yangi ijtimoiy-madaniy usullari .....	186
<b>Sh.Usanov, E.Avazov</b>	
Millatlararo munosabatlar mustahkamlanishida Surxondaryo viloyat turkman milliy-madaniy markazining o'rni .....	190
<b>M.Choriyeva</b>	
"Shoxnoma"da diniy ta'limotlar.....	195
<b>K.Saydazimov</b>	
Baholash va normalar mantig'ida axloqiy qadriyatlar .....	199
<b>A.Mo'ydinov</b>	
Ma'rifatli jamiyatni qurish va ma'rifatli inson sensualistik qarashining mohiyati .....	204

**RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA PEDAGOGLARNING PROFESSIONAL KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ILMYI-NAZARIY ASOSLARI**

**НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ПЕДАГОГОВ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ**

**SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF EDUCATORS BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES**

Umarov Bekzod Azizovich<sup>1</sup>

<sup>1</sup>Umarov Bekzod Azizovich

– Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya**

*Mazkur maqolada raqamli texnologiyalar asosida pedagooglarning professional kompetentligini rivojlantirish yo'llari, xalqaro ilmiy tadqiqot markazlarda pedagooglarning kasbiy kompetentligini oshirish, ularning professional pedagogik faoliyat yuritishlarini ta'minlash, pedagogik jarayon omilkorligiga erishish, ta'lif sifati va samaradorligini ta'minlash, bu jarayonda raqamli texnologiyalar imkoniyatlardan ratsional foydalanish tahlil qilingan.*

**Аннотация**

В данной статье рассмотрены пути развития профессиональной компетентности педагогов на основе цифровых технологий, повышения профессиональной компетентности педагогов в международных научно-исследовательских центрах, обеспечения их профессиональной педагогической деятельности, достижения эффективности педагогического процесса, обеспечения качества и оперативности образования, цифровых технологий в этом процессе анализируется рациональное использование его возможностей.

**Abstract**

*In this article, the ways of developing the professional competence of pedagogues based on digital technologies, increasing the professional competence of pedagogues in international scientific research centers, ensuring their professional pedagogical activities, achieving the effectiveness of the pedagogical process, ensuring the quality and efficiency of education, digital technologies in this process rational use of its capabilities is analyzed.*

**Kalit so'zlar:** raqamli texnologiyalar, professional kompetentlik, pedagogik jarayon, ta'lif sifati va samaradorligi, pedagogik ensiklopediya, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish, maxsus kompetensiya, ijtimoiy kompetensiya, shaxsiy kompetensiya, individual kompetensiya.

**Ключевые слова:** цифровые технологии, профессиональная компетентность, педагогический процесс, качество и эффективность образования, педагогическая энциклопедия, экономическое и социальное развитие, специальная компетентность, социальная компетентность, личностная компетентность, индивидуальная компетентность.

**Key words:** digital technologies, professional competence, pedagogical process, educational quality and efficiency, pedagogical encyclopedia, economic and social development, special competence, social competence, personal competence, individual competence.

**KIRISH**

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ta'lif tizimini isloh qilish, unga innovatsion yondashuvlarni olib kirish, pedagoglar tayyorlashni yangi sifat bosqichiga olib chiqish orqali ta'lif sifati va samaradorligini rivojlangan mamlakatlar darajasiga olib chiqish maqsad qilinmoqda. Bu esa pedagooglarning professional kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish vazifalarni yuzaga keltirmoqda. Chunki pedagogning professional bo'lishi uning kasbiy faoliyati samaradorligini keltirib chiqaradi.

Mazkur pagarifda pedagooglarning kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishda ulardag'i professionalizmni shakllantirish, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish ning ijtimoiy-pedagogik zarurati tadqiq etilgan.

Buning uchun esa, avvalo ko'pgina holatda sinonim so'zlar sifatida qo'llaniladigan pedagogik mahorat, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik muloqot, pedagogik texnika, shuningdek, "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarining mohiyatini aniqlashtirib olish zarur.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Pedagogikada o'qituvchi qobiliyati — bu imkoniyatdir, uning mohirligi zaruriy darajasi faqatgina o'qitish va tarbiyalash jarayonida takomillashib boradi va yutuqlarga erishishida zamin yaratadi. Tug'ma qobiliyatlar zehn deyiladi. Iqtidor, iste'dod, daholik — insонning ijodiy faoliyati jarayonida erishiladigan qobiliyatlarning rivojlanish bosqichlari hisoblanadi. Qobiliyatlar, xarakter

## PEDAGOGIKA

kabi, — shaxsning faqatgina ma'lum faoliyatidagina mavjud bo'lgan sifatlaridir". Demak, pedagogik qobiliyat jarayonda shakllanuvchi jihat hisoblanadi [2].

Pedagogning pedagogik faoliyatida ta'lim oluvchilar bilan olib boradigan muloqoti muhim ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu pedagogik muloqotning butun tizimida uning ma'naviy mazmundorligini oshirishni talab etadi, zero aynan pedagogik muloqot, ta'lim-tarbiyaning ma'naviy asoslarini shakllantirishga qaratilgan. Ijtimoiy-psixologik, tarbiyaviy va ma'naviy vazifalarning murakkabligi o'qituvchining kommunikativ faoliyatiga yuksak talablarni qo'yadi. Pedagogning ta'lim oluvchilar bilan muloqot jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan turli ziddiyatli vaziyatlarni tezda bartaraf etishi uchun, avvalo, o'z iksh doriga, pedagogik mahoratiga tayanishi kerak. Pedagogik muloqot asosida erishiladigan yutuqlar o'qituvchining ijodiy mehnati mahsulidir. Bu mehnatning salbiy va ijobjiy tomonlari bo'lishi shubhasiz. Faqat har bir vaziyatni oqilona baholash, uni to'g'ri rejalahtirish, tarbiyaviy jarayonlarda aql-idrok bilan muloqotni tashkil etishning o'zi kifoya. [1]. Ta'lim sifati va pedagoglar kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan omilkor foydalanish masalalari ko'plab G'arb, MDH va mamlakatimiz olimlari tomonidan tadqiq etilgan va bugungi kunda ham mazkur jarayon tizimli amalga oshirilib kelinmoqda.

G'arb mamlakatlarida ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish va pedagoglarning kasbiy faoliyatini modernizatsiyalash masalalari V.F.Nyumen, G.S.Diori, Marta R.Korbella, R.F.Sprol, A.Kroupley, P.Dripyu, B.Krovell, D.Schaffer, A.V.Pirsonkabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

MDH mamlakatlarida pedagoglarning professional bilim va ko'nikmalarini raqamli texnologiyalar vositasida rivojlantirish masalalari G.V.Abramyan, V.V.Aleynikov, R.S.Arefyev, V.Bespalko, N.Gomulina, V.V.Davidov, M.V.Seliverstova, V.D.Shadrikovlar tomonidan o'rganilgan [3].

## NATIJALAR

Bugungi kunda ta'lim sohasida yuz bergen yangilanishlar pedagogning kasbiy malaka, ko'nikma va bilimlarini oshirishga undaydi, ya'ni zamonaviy pedagog o'zining metodik kompetentligini rivojlantirishga zarurat sezadi. Bugungi kun oliy pedagogik ta'liming asosiy maqsadi – har tomonlama rivojlangan pedagogni tarbiyalashga qaratilgan. Pedagogning professional kompetensiyasini rivojlantirishda pedagogik va texnik-texnologik muammoli vaziyatni yaratish muhim bo'lib, pedagogik shart-sharoitlar bu jarayonni yaratibgina qolmay, uning hozirgi holatini ham belgilab beradi.

Zamonaviy ta'limda pedagogning professional kompetentligini rivojlantirish bosqichmasbosqich, pedagogik turkum fanlarining integratsiyasi, fanlararo aloqadorlik darajasida innovatsion yondashuv asosida pedagogik faoliyatida hamda muammoli masalalarni hal qilish orqali amalga oshiriladi.

Ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik yo'nalishi – bu turli sohalarda maqsadli innovatsion yondashuv, uning intellektual va axloqiy rivojlanishiga asoslangan inson faoliyati. Dunyoning rivojlangan mamlakatlari bilan bir qatorda mamlakatimizda ta'lim islohotlari jarayonida innovatsion ta'limdan foydalanish muhim yo'nalish hisoblanadi.

Pedagoglarning professional kompetentligini rivojlantirish ularni tayyorlashdagi eng qiyin vazifalardan biridir. Ayniqsa, ta'limi modernizatsiyalash davrida pedagogik faoliyatga moslashish muammosi tobora oydinlashib bormoqda.

Pedagoglarning professional kompetentligini rivojlantirishning tarkibiy tuzilishi quyidagilardan iborat:

- maxsus kompetensiya – pedagogik faoliyatni yetarli darajada bilishi, ularning kelajakdagagi kasbiy rivojlanishini loyihalashtira olishi;
- ijtimoiy ta'lim – birgalikdagi pedagogik faoliyat, hamkorlik, shuningdek, metodik muloqot usullarini o'zlashtirish, o'z kasbinining natijalari uchun ijtimoiy javobgarlik.
- kreativ-ilmiy faoliyat- pedagogning ilmiy dunyoqarashining muntazam o'sib borishi, ilmiy fikrlesh tarzi asosida kreativ yondashuvlarni bera olishi.

## MUHOKAMA

Pedagoglarning professional kompetentligining shakllanishi va rivojlanishi – bu ijodiy rivojlanish, pedagog atrofda o'zgarishlarga tez moslasha olish, tez kirishish qobiliyati, jarayonning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy rivojlanishiga nisbatan ishlatiladi.

Pedagoglarning professional kompetentligini rivojlantirish pedagogik madaniyatni takomillashtirish, o'rganishga qiziqishning rag'batlantiruvchi omili sifatida ishlab chiqilishi kerak [5]. Muammoni hal etishning muhim omili pedagoglarning metodik kompetentligini oshirish, kasbiy bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirishdir.

Pedagogning professional kompetentligini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish ta'lismuammolari, muloqot yo'llari haqida to'liq tasavvur beradi. Hodisani har tomonlama nazariy, uslubiy va amaliy o'rganish innovatsion yondashuv asosida pedagogning metodik kompetensiyasining rivojlanish darajasini tizimli aniqlashda yuzaga keladigan yondashuvni taqdim etishga imkon beradi. Harakat tartibi hamda ularning tarkibi pedagoglarning aqliy va amaliy imkoniyatlarini hisobga olib yetarli darajada ishlab chiqilishi zarur. Har qanday ta'lism texnologiyasi ba'zi bir metodologik talablarga yoki texnologik mezonzalarga javob bera olishi kerak.

Innovatsiya – bu vosita, ya'ni yangi usul, metodika, texnologiyadir. Innovatsiya ta'lism jarayonida rivojlanadi. Ta'lism jarayonida innovatsiyani rivojlantirish uchun tashabbuskorlikni oshirish kerak, tashabbusni oshirish uchun muammoli vaziyatni hosil qilish kerak. Qachonki muammoni hal qilish uchun yoki muammoli vaziyatdan chiqish uchun pedagog yangi g'oya bilan chiqish qiladi.

Innovatsion yondashuv asosida professional kompetensiyani rivojlantirishning maqsadi – kasbiy va shaxsiy rivojlanish jarayonida kelajakdagagi ta'limga tarkibiy qismlarini ishlab chiqish bo'lib, o'z-o'zini anglash, baholash va boshqarish va turli ta'lismuassasalarida ishlashga tayyorgarlik, umumiy va maxsus fanlarning vazifalari ishlab chiqilishi kerak. Pedagogik va texnologik muammolarni aniqlash va hal qilish bo'lajak professional pedagogning pedagogik faoliyatining asosi bo'lib, pedagogik, kasbiy bilimlarni egallashga ijobjiy munosabatda bo'lishga yordam beradi. Kelajakdagagi kasbiy faoliyatning individual usulining asosi sifatida o'quv, pedagogik va ishlab chiqarish faoliyatining reproduktiv va ijodiy usullari shakllanadi, muhim kasbiy va ijodiy bilimlar rivojlanadi, pedagogik fazilatlar, kasbiy va shaxsiy o'zini o'zi rivojlantirish ehtiyoji paydo bo'ladi.

Izlanish jarayonida, aniqlanadiki, innovatsion yondashuv asosida pedagogning yangiliklarni ta'lismuammosiga kiritish bo'yicha ijodiy faoliyatini jalb etishga tayyorgarligi, nazariy va amaliy mashg'ulotlar tashkil etish uchun innovatsiyalar kiritishga qaratilgan harakatlar natija berishga ishonchi, shaxsiy maqsadlarining innovatsion faoliyat bilan mosligi va muvofiqligi hamda pedagog o'zini innovatsion faoliyatiga yo'naltirish uchun yangilikni idrok qilishga tayyorlash va yangicha harakat qila olish ko'nikmasini shakllantirish. Ta'limga innovatsion yondashuv faqatgina ma'lumotlar va ko'nikmalarning yig'indisini egallashdan iborat bo'lgan ta'lism natijalariga emas, balki, shaxsning kasbiy faoliyatda turli xil muammolarni mustaqil ravishda yecha olishga qodirligi va tayyorligiga yo'naltirilgan ta'lism natijalarining yangi turlarini yuzaga keltiradi.

Jamiyatning barcha sohalaridagi rivojlanish, faol kadrlarga bog'liq bo'lib hisoblanadi. Zero, jamoa, tashkilotni har bir a'zosi u yoki bu darajadagi kadr hisoblanadi. Demak, kadrlar faoliyatini baholashda shaxsning ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga ahamiyat qaratish zarur.

Pedagoglarning professional kompetentligini rivojlantirishda ularning pedagogik faoliyatdagagi faolligini oshirish, kasbiy faolligi uchun to'g'ri motivatsiyani bera olish talab etiladi. Psixologiyada "faollik" inson faoliyatidagi muhim xususiyat sifatida xarakterlanadi. Shuningdek, shaxsni ijtimoiylashuvi jarayonidagi ehtiyojlari va ontogenezda orttirilgan, tug'ma, hayotni umum-jamlangan xarakteristikasi hisoblanadi.

Pedagogik faoliyatda pedagoglarning professional kompetensiyasini rivojlantirishda kasbiy va ijtimoiy faollik uyg'unligi talab etilar ekan, eng avvalo faollik tushunchasining mazmun mohiyatini anglash, shu asosda pedagoglarda faollikka motivatsiyani shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Demak, "faollik" — insonni tashqi muhitga intensiv ta'siri va maqsadga erishishdagi to'siq(qarama-qarshilik)larni yengib o'tishidir. Bu organizm va tashqi muhit, subyekt va tashqi-muhit, shaxslararo va ijtimoiy muhitdagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga qaratiladi. Tadqiqotchi olim A.Maslou fikriga ko'ra, insondagi "faollik" birlamchi determinant — ichki, immanent, ya'ni insongagina xos bo'lgan intilish va xohish hisoblanadi. Mazkur tizimga shaxs faolligi bosh omil sifatida qaraladi. Boshqa bir olim X.Xekxauzen fikricha motivatsiya – shaxsning psixodinamik tizimi bo'lib, tashqi muhitga nisbatan shaxsning hayotiy munosabatini belgilovchi va uning faoliyatini boshqaruvchi, yo'naltiruvchi, tashkillashtiruvchidir. Motivatsianing xususiyati va dinamikasi qator faktorlar orqali yuzaga keladi. Psixik jarayonlar vaziyat, irodaviy, emotsiyal, shaxs tuzilishiga bevosita bog'liq bo'lgan (ehtiyoj, ustyanovka,

## PEDAGOGIKA

qadriyatlarga yo'nalganlik), shaxsni tashqi olamga munosabati, shaxsiy faoliik, natijalarini rejalahtirish, oldindan belgilashdir [4].

### XULOSA

Fikrimizcha, pedagogik faoliyatda tushunchalarga asoslangan ijtimoiy stereotiplar ham mavjud bo'lib, u pedagog xatti-harakatlarini ma'lum bir modelga tushirib qo'yishi mumkin ekan. Ya'ni, pedagog o'ngiga o'rnashib qolgan "yolg'on" tushunchalarga asoslangan ijtimoiy stereotiplar xatti-harakatlarni bitta "qolip"ga tushirib qo'yishi mumkin bo'ladi. Bu esa, pedagog xatti-harakatlarini boshidanoq noto'g'ri yo'nalishga kirib qolishiga olib keladi. Demak, ijtimoiy stereotiplar bir insonni hattoki, guruhni boshi berk ko'chaga olib kirishi mumkin deb hisoblashimiz mumkin [8]. Bu boshqa shaxslarni guruhlar ustidan manipulyatsiyasiga olib keladi. Natijada, insonda shaxsiy omadsizlik, jamiyatda turli tushunmovchiliklar, janjallar, urushlar, ijtimoiy hayotda esa, shaxslar o'tasida qo'rquv, nafrat va noqulayliklarni kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Yolg'on stereotiplar inson hayotini nafaqat izdan chiqarishi, balki kishilarda boshqalarning irqi, millati, tashqi ko'rinishiga, hayot tarziga nisbatan nafratni kuchayishiga olib keladi.

Shunday ekan, pedagoglar faoliyatini jamiyatda o'rganilgan ijtimoiy stereotiplardan xalos qilish, ularni qolip va komplekslar ichida yashash va ishlashdan, akademik erkinlikda faoliyatini yo'lga qo'yishga yo'naltirish har doim dolzarb vazifa bo'lib qoladi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 2020-yil 5-oktabrdagi «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Qarori.
2. Atakulova N.A. Ta'lim jarayonida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish. Monografiya. -T.: 2016. -B.11. Asomova R.S. Kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi: Avtoref. psix. fan. nom. ... diss. – T., 2002. – 28 b.
3. Berdibekov P., Rashidova G. Ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik jihatlari/Xalq ta'limi J. 2016 №2. -B.29.
4. Inoyatov U., Xodjayev B. Umumta'limi kompetensiyalarni loyihalashtirishning konseptual asoslari//Xalq ta'limi J.-T.: 2016.№2. –S. 7-15.
5. Muslimov N.A., Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: Fan va texnologiya, 2013. – B.6.
6. Benjamin Crowell. Newtonian Physics// Light and Matter / Fullerton, California-2012. BenjaminCrowell Revolution in PhysicsThe Modern Light and Matter Fullerton, California-2012
7. John Dirk Walecka. Introduction to Modern Physics// College of William and Mary:/USA ,Jul -2008.
8. Zanina L.V., Menshikov N.P. Osnovi pedagogicheskogo masterstva. /Seriya "Uchebniki, uchebniye posobiya". – Rostov n/D: Feniks, 2003. – 288 s.
9. Elisabeth Kastenholz, Maria Cam eiro, Celeste Eusebio «The impact of socio-demographics on tourist behavior - analyzing segments o f cultural tourists visiting Co im b ra» University o f Aviero, 2004.
10. Ismailov A.F. Akademik litseylarda tarix fanini o'qitishning innovatsion texnologiyalarini takomillashtirish: Avtoref. ped.fan.bo'yicha fal.dok. – Toshkent, 2018. – 50 b.
11. Раченко И.П. Диагностика развития педагогического творчества учителя. – Пятигорск, 1992.- 196 с.
12. Симонов В.П. Диагностика личности и профессионального мастерства преподавателя. – М.: МПА, 1995. – 189 с.
13. Тарасевич Н.Н., Кривонос И.Ф. Учителю о педагогической технике. – М.: Педагогика, 1987. – 216 с.
14. Shonazarov Q.R. Bo'lajak tarix o'qituvchilarini maktab o'quvchilarida tarixiy tafakkurni shakllantirishga tayyorlash.Diss.ped.f.n. –Toshkent, 2002. -134 b.
15. Энциклопедия педагогических технологий. – SPb.: KARO, 2005. – 56 s.
16. Якушева С.Д. Основы педагогического мастерства.– Москва, Академия, 2012. – S. 256.\
17. Winter J. Sites of Memory, Sites of Mourning: The Great War in European cultural history – Cambridge, 1995. – 326 p.